(2). Бекбергенова З.У. Поэтика художественной речи в каракалпакских романах (1980–2010-е годы). Автореф. дис. … д-ра филол. наук (DSc). 10.00.03. Нукус, 2017.

(3). Каипбергенов Т. Дочь Каракалпакии. Роман в 2 кн. Перевод с каракалпакского Г.Марьяновского. Нукус, “Каракалпакстан”, 1982.

(4). Нурмухамедов М.К. Каракалпакская советская проза. Ташкент, “Фан”, 1968.

(5). Орымбетова Н.Б. Проблема характера героя в каракалпакском романе 80-х годов. Автореф. дис. … канд. филол. наук, 10.01.02. Нукус, 2001.

(6). Султанов Қ.Т.Қайыпбергеновтың прозасы. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1979.

(7). Yılmaz V.B. Karakalpak Kızı. An Analysis of Karakalpak Culture // Sosyal Bilimler Dergisi / The Journal of Social Sciences. 2019, № 41, p. 243–250. DOI: 10.29228/SOBIDER.32632.

Ibrohimova Nasiba Mirzohid qizi (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti; mirzohidovna0328@gmail.com)

KONSEPT VA KONSEPTLAR KLASTERI TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI PARADIGMALARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy tilshunoslikda konsept va konseptlar klasteri tushunchalarining nazariy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning muammosi konseptning kognitiv, lingvomadaniy va strukturaviy xususiyatlarini izohlovchi yondashuvlarning o‘zaro munosabatini tizimlashtirish zarurati bilan belgilanadi. Nazariy-qiyosiy tahlil asosida S.A.Askoldov, N.D.Arutyunova, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova, V.I Karasik, E.Rosch, G.Lakoff va Ch.Fillmore qarashlari qiyoslanadi. Tahlil konseptni alohida mental birlik sifatida emas, balki prototipik, radial va freym munosabatlari orqali tizimlashuvchi konseptual tuzilmaning tarkibiy qismi sifatida izohlash imkonini ko‘rsatadi. Natijalar “shaxs” va “jamiyat” konseptlarini keyingi tadqiqot bosqichlarida o‘zaro bog‘langan konseptual birliklar sifatida tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *konsept, konseptlar klasteri, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, prototip, radial model, freym semantikasi, konseptualizatsiya.*

Иброхимова Насиба Мирзохид кизи (опорный докторант, Узбекский государственный университет мировых языков; mirzohidovna0328@gmail.com)

ПАРАДИГМЫ ПОНЯТИЙ «КОНЦЕПТ» И «КЛАСТЕР КОНЦЕПТОВ» В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические интерпретации понятий концепта и кластера концептов в современной лингвистике. Проблема исследования связана с необходимостью систематизации взаимосвязи когнитивных, лингвокультурологических и структурных подходов к концепту. На основе теоретико-сопоставительного анализа рассматриваются взгляды С.А. Аскольдова, Н.Д.Арутюновой, Е.С.Кубряковой, В.А.Масловой, В.И.Карасика, Э.Рош, Дж.Лакоффа и Ч.Филлмо-ра. Анализ показывает возможность трактовки концепта не только как отдельной ментальной единицы, но и как компонента концептуальной структуры, организуемой посредством прототипических, радиальных и фреймовых отношений. Полученные положения создают теоретическую основу для последующего анализа концептов «личность» и «общество» как взаимосвязанных единиц.*

Ключевые слова: *концепт, кластер концептов, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, прототип, радиальная модель, фреймовая семантика, концептуализация.*

Ibrokhimova Nasiba Mirzokhid kizi (Basic doctoral student, Uzbekistan State University of World; Languages; mirzohidovna0328@gmail.com)

PARADIGMS OF THE NOTIONS OF CONCEPT AND CONCEPT CLUSTERS IN MODERN LINGUISTICS

Annotation. *The article analyzes theoretical interpretations of the notions of concept and concept cluster in modern linguistics. The research problem concerns the need to systematize the relationship between cognitive, linguocultural and structural approaches to concept. Using theoretical and comparative analysis, the study examines the views of S.A.Askoldov, N.D.Arutyunova, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova, V.I.Karasik, E.Rosch, G.Lakoff and Ch.Fillmore. The analysis shows that a concept can be interpreted not only as an individual mental unit but also as a component of a conceptual structure organized through prototypical, radial and frame relations. These findings provide a theoretical basis for subsequent analysis of the concepts of ‘individual/person’ and ‘society’ as interconnected conceptual units.*

Keywords: *concept, concept cluster, cognitive linguistics, linguoculturology, prototype, radial model, frame semantics, conceptualization.*

Kirish (Introduction). XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilni faqat strukturaviy tizim sifatida tavsiflashdan ko‘ra, uni inson tafakkuri, idroki, tajribasi va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganishga yo‘naltirilgan antropotsentrik yondashuvlar kuchaydi. Shu metodologik burilish kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika va lingvokulturologiya doirasida til birliklarining ma’nosini inson ongidagi konseptual tuzilmalar bilan aloqada tushuntirishga zamin yaratdi. Mazkur jarayonda “konsept” zamonaviy tilshunoslikning tayanch kategoriyalaridan biriga aylandi.

Biroq konseptni faqat alohida mental birlik sifatida talqin qilish uning tizimli tabiatini to‘liq ochib bermaydi. Konseptlar inson ongida va nutqiy faoliyatda boshqa konseptlar bilan aloqada faollashadi. Shu sababli konseptlarning markaz-periferiya, radial kengayish, freym va semantik bog‘lanishlar asosida tashkil topishini izohlash hamda “konseptlar klasteri” tushunchasining nazariy asoslarini belgilash ilmiy muammo sifatida qo‘yiladi.

Maqolaning maqsadi zamonaviy kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlarda konsept haqidagi asosiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish hamda konseptlar klasterini izohlash uchun xizmat qiladigan nazariy modellarni tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot obyekti – zamonaviy tilshunoslikdagi konsept va konseptual tuzilmalar haqidagi nazariy qarashlar; predmeti – konseptning kognitiv, lingvomadaniy va strukturaviy xususiyatlarini hamda konseptlararo bog‘lanishni tushuntiruvchi nazariy modellar. Maqolaning nazariy ahamiyati konseptning turli paradigmalar doirasidagi talqinlarini yagona tahliliy ketma-ketlikda ko‘rsatish bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Kognitiv tilshunoslikning shakllanishi til va tafakkur munosabatini yangi metodologik asosda ko‘rib chiqish bilan bog‘liq. V.Evans kognitiv tilshunoslikdagi “umumlashtiruvchi majburiyat” va “kognitiv majburiyat” tamoyillarini ajratadi [1]. R.Langacker ma’noni konseptualizatsiya jarayoni sifatida talqin qilib, lisoniy birliklarda profil va baza munosabatiga e’tibor qaratadi [2]. Ushbu yondashuvlarda til alohida formal tizim emas, balki umumiy kognitiv qobiliyatlar bilan uzviy bog‘langan hodisa sifatida qaraladi.

Konsept tushunchasining dastlabki muhim talqinlaridan biri S.A.Askoldovga tegishli. U konseptning tafakkurdagi o‘rinbosarlik funksiyasini ko‘rsatib, uni ko‘plab predmet va hodisalarni ixcham mental birlikda ifodalovchi tuzilma sifatida tavsiflaydi [3;267, 269, 273–276-b.]. N.D.Arutyunova yo‘nalishidagi talqinlarda esa konsept inson va voqelik o‘rtasidagi madaniy-aksiologik vositachi sifatida ko‘riladi; konseptual maydon va birliklarning birikuvchanligini tizimlashtirishga urg‘u beriladi [4;11-b.; 5;79, 135-b.]. Demak, Askoldov yondashuvi konseptning mantiqiy-funksional tomonini, Arutyunova paradigmasi esa uning madaniy va qadriyatga bog‘liq tomonini kuchliroq yoritadi.

E.S.Kubryakova konseptni operativ ongdagi bilim birligi va inson xotirasida saqlanuvchi mental reprezentatsiya sifatida izohlaydi [6;16-b.;7;46-b.]. Bunday yondashuv konseptni qat’iy va o‘zgarmas struktura emas, yangi bilim va tajriba bilan boyib boradigan dinamik tuzilma sifatida ko‘rishga imkon beradi. V.A. Maslova til va madaniyatning o‘zaro aloqasiga tayangan holda konseptning lingvomadaniy tabiatini yoritadi [8;317-b.]. V.I.Karasik konseptning tushunchaviy, obrazli va qadriyatli komponentlarini ajratishi orqali uning ko‘p qatlamli tuzilishini tavsiflash imkonini beradi [8;9-b.].

Konseptlararo tizimli munosabatni izohlashda E.Roschning prototip nazariyasi muhimdir. Ushbu nazariyada kategoriya a’zolari bir xil maqomga ega emas: prototipik markaz va undan uzoqlashuvchi periferik birliklar mavjud [10;192–233-b.]. G.Lakoff radial model orqali bu g‘oyani kengaytirib, kategoriya a’zolarining metafora, metonimiya va o‘xshashlik asosida semantik tarmoq hosil qilishini ko‘rsatadi [11; 8–13–50-b.]. Ch.Fillmore freym semantikasida esa so‘z ma’nosini uni faollashtiruvchi yaxlit bilim strukturasi va vaziyat bilan aloqada tushuntiradi [12;112–116-b.].

Ko‘rib chiqilgan nazariyalarning kuchli tomoni konseptning turli qirralarini mental reprezentatsiya, madaniy qadriyat, prototipik tashkil topish, radial bog‘lanish va freym asosidagi bilim tuzilishini – yoritishidir. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlar alohida qo‘llanganda konseptlararo murakkab tizimni to‘liq tavsiflash imkoniyati cheklanadi. Mazkur nazariy tahlilda aniqlanayotgan bo‘shliq konseptni yakka birlik sifatida tavsiflashdan konseptlarning o‘zaro bog‘langan klasterli tuzilishini izohlashga o‘tish zarurati bilan bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqola nazariy-tahliliy tadqiqot sifatida tashkil etildi. Tadqiqot materiali 1.1 paragrafda foydalanilgan kognitiv tilshunoslik va konseptologiyaga oid ilmiy manbalardan iborat bo‘lib, ular konseptning ta’rifi, ichki tuzilishi va konseptlararo munosabatni izoh-

lash imkoniyatiga koʻra tanlandi. Tahlilda tavsifiy, qiyosiy va konseptual tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda konseptning mental va kognitiv xususiyatlarini izohlovchi qarashlar ajratildi. Ikkinchi bosqichda konseptning lingvomadaniy va aksiologik componentlarini yorituvchi yondashuvlar qiyoslandi. Uchinchi bosqichda konseptlararo bogʻlanishni tushuntirish imkonini beruvchi prototip, radial kategoriya va freym modellari oʻzaro munosabatda tahlil qilindi. Ushbu dizayn yangi empirik korpus natijalarini daʼvo qilmaydi; maqolaning daliliy bazasi koʻrsatilgan nazariy manbalarning qiyosiy tahlilidan iborat.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). Nazariy manbalarni qiyoslash konsept talqinlarida birbirini toʻldiruvchi uch asosiy yoʻnalishni koʻrsatadi. Birinchisi, konseptning mental-kognitiv tabiati: Askoldovdagi oʻrinbosarlik funksiyasi va Kubryakovadagi bilim birligi haqidagi qarash konseptning ongdagi reprezentativ vazifasini tushuntiradi [3;6;7]. Ikkinchisi, lingvomadaniy-aksiologik yoʻnalish boʻlib, Arutyunova, Maslova va Karasik qarashlarida konseptning madaniyat, qadriyat va lisoniy dunyo manzarasi bilan bogʻliqligi kuchayadi [4;5;8;9]. Uchinchisi, strukturaviy-kognitiv yoʻnalish boʻlib, Rosch, Lakoff va Fillmore nazariyalari konseptual birliklarning ichki va oʻzaro aloqalarini modellashtirishga imkon beradi [10–12].

Roschning prototip modeli konseptual kategoriyaning markaz va periferiya asosida tashkil topishini tushuntiradi [10;192–233-b.]. Biroq konseptlar klasterini faqat tipiklik darajasi bilan izohlash yetarli emas. Lakoffning radial modeli markaziy birlikdan semantik kengayishlarning metafora, metonimiya va oʻxshashlik asosida tarqalishini koʻrsatadi [11;8–13,50-b.]. Shu tariqa, prototip modeli iyerarxik tashkil topishni, radial model esa ushbu tuzilma ichidagi semantik kengayish mexanizmini yoritadi.

Fillmorning freym semantikasi mazkur ikki modelni bilim va vaziyat strukturalari bilan toʻldiradi. Freymda bir birlikni tushunish unga aloqador rollar va munosabatlarni ham faollashtirishni talab qiladi [12; 112–116-b.]. Shuning uchun konseptlar klasterini tasodifiy tushunchalar yigʻindisi emas, balki umumiy bilim sohasi doirasida oʻzaro faollashuvchi, markaz-periferiya munosabatlariga ega va turli semantik aloqalar orqali birlashuvchi tizim sifatida izohlash uchun nazariy asos yuzaga keladi.

Mazkur natija “shaxs” va “jamiyat” konseptlarini keyingi tadqiqot bosqichida mutlaqo ajratilgan birliklar sifatida emas, balki bir-birini faollashtiruvchi konseptual birliklar sifatida koʻrib chiqishga metodologik zamin beradi. Bunda Karasikning tushunchaviy, obrazli va qadriyatli komponentlari konseptlarning ichki qatlamlarini, Rosch–Lakoff modellari markaz-periferiya va radial bogʻlanishlarni, Fillmore freymi esa konseptlar ortidagi vaziyat, rol va munosabatlar tizimini tavsiflash uchun xizmat qilishi mumkin.

Nazariy yoʻnalish	Asosiy olim(lar)	Tayanch gʻoya	Klaster tahliliga hissasi
Mental-kognitiv	S.A.Askoldov; E.S. Kubryakova	Konsept – ongdagi oʻrinbosar/bilim birligi	Konseptning mental asosini belgilaydi
Lingvomadaniy-aksiologik	N.D.Arutyunova; V.A. Maslova; V.I.Karasik	Konsept madaniyat va qadriyat bilan bogʻliq	Klaster tarkibidagi qadriyat va madaniy qatlamlarni ajratishga asos beradi
Prototipik	E.Rosch	Markaz–periferiya va tipiklik	Klaster ichidagi ierarxik tashkil topishni tushuntiradi
Radial	G.Lakoff	Markazdan semantik kengayishlar va zanjirsimon bogʻlanish	Konseptlar oʻrtasidagi semantik tarmoqni modellashtiradi
Freym-semantik	Ch.Fillmore	Maʼno yaxlit bilim va vaziyat strukturasi orqali anglashiladi	Konseptlararo rol va munosabatlarni bir tizimda koʻrsatadi

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tahlil natijasida konseptning zamonaviy tilshunoslikdagi talqinlari bir-birini inkor etuvchi emas, balki turli tahlil sathlarini yorituvchi yondashuvlar ekani koʻrindi. Askoldov va Kubryakova qarashlari konseptning mental-kognitiv tabiatini, Arutyunova, Maslova va Karasik yondashuvlari uning madaniy-aksiologik qatlamini, Rosch, Lakoff va Fillmore modellari esa konseptual tuzilmalarning ichki va oʻzaro tizimli aloqalarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Shu asosda konseptlar klasterini umumiy semantik va bilim maydoni doirasida oʻzaro bogʻlangan, markaz va periferiyaga ega, radial kengayishlar hamda freym munosabatlari orqali tashkil topuvchi konseptual birliklar tizimi sifatida oʻrganish nazariy jihatdan asosli deb qaraladi. Keyingi tadqiqotda ushbu nazariy modelni “shaxs” va “jamiyat” konseptlarining aniq til materialidagi verbalizatsiyasi va pragmatik faolla-

shuvi asosida tekshirish maqsadga muvofiq. Mazkur maqola doirasida bunday empirik tekshiruv amalga oshirilgani da'vo qilinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Evans V. How Words Mean: Lexical Concepts, Cognitive Models, and Meaning Construction. Oxford, Oxford University Press, 2009.

(2). Langacker R. Concept, Image, and Symbol. The Cognitive Basis of Grammar. Berlin/New York, Mouton de Gruyter, 1991.

(3). Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. М., "Academia", 1997, с. 267, 269, с. 273–276.

(4). Zhirova I., Dmitrieva O., Lukin D. Lexical "portraying" of cognitive concepts // E3S Web of Conferences. 2021, p. 11.

(5). Маслова В.А. Концептуальные основы современной лингвистики. Учеб. пособие, М., "ФЛИНТА", 2019.

(6). Кубрякова Е.С. Приветствие. Концептуальный анализ языка: Современные направления исследования. М., Калуга, 2007, с. 16.

(7). Кубрякова Е.С., Демьянков В.З. Краткий словарь когнитивных терминов. М., изд-во Моск. ун-та, 1996, с. 46.

(8). Кубрякова Е.С. Язык и знание. М., Языки славянской культуры, 2004, с. 317.

(9). Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Тамбов, ТГУ, 2001, с. 30.

(10). Rosch E. Cognitive Representations of Semantic Categories. Journal of Experimental Psychology: General. 1975, vol. 104, № 3, p. 192–233.

(11). Lakoff G., Women, Fire and Dangerous Things. Chicago, University of Chicago Press, 1987, p.8–13, 50.

(12). Fillmore Ch. Frame Semantics. 1982, p. 112, 116.

Гофурова Виктория Вячеславовна (преподаватель кафедры испанской филологии, самостоятельный соискатель Узбекский государственный университет мировых языков; E-mail: viktoriagofurova@gmail.com),

Турамуратова Ирода Илхомбаевна (Заведующая кафедрой испанской филологии, д.ф.ф.н. (PhD), доцент, Узбекский государственный университет мировых языков; i.turamuratova@uzswlu.uz)

ПРОБЛЕМА РАЗГРАНИЧЕНИЯ ГЕНДЕРА И ГРАММАТИЧЕСКОГО РОДА В ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В статье рассматривается проблема разграничения понятий гендера и грамматического рода в языке. Актуальность исследования обусловлена необходимостью чёткого разделения грамматических и социокультурных категорий при изучении гендерной проблематики. Цель работы заключается в определении особенностей соотношения грамматического рода и гендера, а также в выявлении границ их взаимодействия. На основе теоретического и функционального анализа показано, что грамматический род является категорией языковой системы, тогда как гендер связан с социальными и культурными представлениями о человеке. Установлено, что грамматический род может участвовать в выражении гендерной информации, однако не сводится к ней. Особое внимание уделяется случаям, когда грамматические формы соотносятся с обозначением лиц мужского и женского пола, а также ситуациям, в которых грамматический род не имеет прямой связи с полом или социальным гендером. Делается вывод о необходимости многоуровневого подхода к анализу гендерных явлений в языке.*

Ключевые слова: *гендер, грамматический род, язык, языковая система, гендерная маркированность, языковая картина мира, социолингвистика.*

TILDA GENDER VA GRAMMATIK JINSNI FARQLASH MUAMMOSI

Annotatsiya. *Maqolada tilda gender va grammatik jins tushunchalarini farqlash muammosi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi gender masalasini o'rganishda grammatik va ijtimoiy-madaniy kategoriyalarni aniq ajratish zarurati bilan belgilanadi. Ishning maqsadi grammatik jins va gender o'rtasidagi munosabatning o'ziga xos jihatlarini aniqlash hamda ularning o'zaro aloqasi chegaralarini belgilashdan iborat. Nazariy va funksional tahlil asosida grammatik jins til tizimining kategoriyasi, gender esa inson haqidagi ijtimoiy va madaniy tasavvurlar bilan bog'liq hodisa ekanligi ko'rsatiladi. Grammatik jins genderga oid axborotni ifodalashda ishtirok etishi mumkin, biroq u gender tushunchasiga tenglashtirilmasligi kerak. Gender hodisalarini tahlil qilishda grammatik, leksik-semantik va pragmatik darajalarni hisobga olish zarurligi xulosa qilinadi.*

Kalit so'zlar*: gender, grammatik jins, til, til tizimi, gender markirovkasi, lingvomadaniy manzara, sotsiolingvistika.*